XALQ DEPUTATLARI SHOFIRKON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-120-2-41-K/25 Shofirkon tumani

Shofirkon tumanining 2026 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2025-yil 25-dekabrdagi O'RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-21-112-2-0-K/25-sonli "Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq hamda Buxoro viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining xatini inobatga olib, xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining "Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Shofirkon tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **145 mlrd. 854,2 mln. so'm** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **145 mlrd. 854,2 mln. so'm**ga tasdiqlanganligi, shuningdek, Shofirkon tuman mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **1 mlrd. 290,0 mln. so'm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shofirkon tumani budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda Shofirkon tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Shofirkon tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shofirkon tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun **2 mlrd. 141,0 mln. so'm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg’armasi mablag’larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi taʼminlansin.

5. Shofirkon tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari B.Salomov, tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (N.Naimov), tuman soliq inspeksiyasi (O.Muqimov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

6. Hududiy budjet mablag’larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag’larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari туман Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag’larini taqsimlovchilar:

– budjetdan ajratilgan mablag’lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va o’z vaqtida toʻlanishi;

– o’zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to’g’ri tuzilishi;

– budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to’liq bajarilishi;

– tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag’larning to’g’ri taqsimlanishi;

– o’z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

– budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shofirkon tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni masalalari doimiy komissiyasi (N.Sadullayev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag’allikni qisqartirish masalalari bo’yicha birinchi o’rinbosari B.Salomov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

FAYZILLOYEV ALISHER ABDILLOYEVICH

Xalq deputatlari Shofirkon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-120-2-41-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shofirkon tumani budjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0,0	3 293 950,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 988 000,0	7 988 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	9 026 371,0	45 264 000,0
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	0,0	2 913 960,0
5	Aksiz solig'i, jami	0,0	17 451 529,0
	shu jumladan:		
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	*0,0*	*0,0*
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*0,0*	*17 451 529,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	352 000,0	2 475 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 019 000,0	11 019 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig'i	1 332 000,0	13 656 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	27 428 844,0	27 428 844,0
10	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0	7 072 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	69 000,0	4 209 000,0
12	Davlat boji	0,0	1 027 200,0
13	Jarimalar	0,0	1 255 840,0
14	Ijara to'lovi	122 000,0	122 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0	0,0
16	Yig'imlar	0,0	677 920,0
17	Xususiylashtirish	0,0	0,0
18	Boshqalar	0,0	0,0
JAMI		**57 337 215,0**	**145 854 243,0**

Xalq deputatlari Shofirkon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-120-2-41-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Shofirkon tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**145 854 243,0**
1	Maktabgacha va Maktab taʼlimi boʻlimi	39 460 965,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 460 800,0
2	Madaniyat boʻlimi	8 352 509,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	5 522 911,0
4	Sport boʻlimi	9 495 801,0
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	0,0
6	Qishloq xoʻjaligi soha tashkilotlari	4 479 251,0
7	Suv yetkazib berish xizmati DM	2 382 639,0
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	0,0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy boʻlimi Ijtimoiy koʻnikma markazlari xarajatlari	166 252,0
10	Hokimiyat	51 401 316,0
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	*2 784 404,0*
	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	*2 114 288,0*
	Madaniyat boʻlimi (boshqaruv)	*188 289,0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi (boshqaruv)	*479 671,0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi	*242 706,0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi	*491 972,0*
	Qishloq xo'jaligi bo'limi	*1 240 716,0*
	Oila va xotin-qizlar bo'limi	*292 527,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	*23 918 466,0*
	"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	*2 915 000,0*
	Zahira jamgʻarmasi	*2 141 038,0*
11	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 183 292,0
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*84 414,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 098 878,0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	23 409 307,0
13	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-120-2-41-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026 yilda Shofirkon tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy budjet nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar

1	Shofirkon tumani	0%	12%	20%	8%	0%	60%	100%	40%	100%	100%	0%	0%	0%	55%	100%	45%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Mahalliy budjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga												
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Shofirkon tumani	0 %	100 %	100 %	0 %	100 %	100 %	0 %	0 %	100 %	100 %	0 %	0 %	0 %	100 %	100 %	0 %	100 %	100 %	100 %	100 %	100 %	16 %	84 %	16 %	84 %	16 %	84 %